

SPIRTLARNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

M.R.Ro'zimurodova

Annotasiya; Glikozalar rangsiz, hidsiz, shirinroq ta'mga ega bo'lgan suyuqlikdir ularni suv va spirt bilan aralashishi, Spirtlarni turlari, Spirtlarni foydali tomonlari, spirtning ziyonlari, yoshdagi kishilar orasida o'limlarning ko'payip borishi

Kalit so'zlar; glikollar, metanol, etanol, etandiol, glitserin.

Аннотация; Гликожи - это жидкость без бесцветного, без запаха, позвоночника сладкого, смесь алкоголя, выгод, алкоголя, повреждения смертей среди людей алкоголя,

Ключевые слова; Gloccols, метанол, этиндиол, глицерин.

Annotation; The glycages are a liquid without colorless, odorless, spine of sweeter, mixture of alcohol, benefits, alcohol, the damage of deaths among people of alcohol,

Keywords; Gloccols, methanol, etandiol, glycerin.

Kalit so'zlar; glikollar, metanol, etanol, etandiol, glitserin.

Respublikamizda spirtlarning ahamiyati juda katta misol uchun oziq-ovqat sanoatida, qishloq xo'jaligida, atir upachilikda, ichimliklar ishlab chiqarishda va shunga o'xshash ko'plab soxalarda ishlatiladi. Spirtlar inson turmush tarzida juda ham kerak bo'lganligi uchun nafaqat o'zbekistonda yer yuzining barcha mintaqalarida ishlatiladi. Spirtlarni turlari juda ko'p ulardan dioksan, glikollar, glitserin, etanol, metil spirti va shunga o'xshash turlari juda ko'p. 1906-yilda A.E.Favorskiy dioksanni sintez qilgan dioksan 101 °C da qaynaydigan rangsiz suyuqlik.

Glikozalar rangsiz, hidsiz, shirinroq ta'mga ega bo'lgan suyuqlikdir ular suv va spirt bilan yaxshi aralashadi.

Glitserin 290 °C da qaynaydigan quyuq shirin ta'mli gigroskopik suyuqlik va spirt bilan cheksiz nisbatda aralashadi efir va xloroformda erimaydi suv bilan aralashirilgan gletserin terini yumshatish uchun ishlatiladi toza suvsiz glitserinni gigroskopik modda bo'lgani uchun teri hujayralaridagi suvni tortib olib terini kuydirishi mumkin.

Etanol zaxarli narkotik modda etanol ichimliklarni [aroq, vino, pivo] hatto oz-ozdan doimiy ichish alkogolizmga olib keladi natijada jigar, yurak, miya kasallanishi, ruxiyatning buzilishi, nasilning aynishi yuz beradi. 1856-yilda fransuz kimyogari A.Vyurs dixloretanni gidroliz qilib etandiol olgan.

Metanol asosan erituvchi sifatida lak-bo'yoq moddalar tayyorlashda formaldegid olishda va har xil moddalar sintez qilishda xomashyo sifatida

ishlatiladi. Etanol xalq xo'jaligining ko'p tarmoqlarida ishlatiladi etanolni ko'p istemol qiluvchilar gastrit, oshqozon yarasi, jigar sirrozi kasalliklariga yo'liqadi. Kimyo sanoatida sintetik kauchuk va bo'yoq moddalar olishda formatsevtika sanoatida ishlatiladi. Dietilefir narkoz uchun og'riq sezdirmaydigan qilish uchun etilxloridlarni olishda va parfyumeriya sanoatida etanol ko'p miqdorda ishlatiladi etilenglikol xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlarida ishlatiladi. U suv bilan aralashtirilganda suvning muzlash temperaturasini pasaytirib yuboradi. Shuning uchun antifirizlar tayyorlashda ishlatiladi sintetik tola lavsan olishda ham foydalaniladi glitserinning hosilasi nitroglitserin portlovchi modda sifatida dinamit tayyorlashda ishlatiladi. Terini yumshatadi nitroglitserinning spirtidagi 1 % eritmasidan yurak kasalliklarida gipertoniyada dori sifatida foydalaniladi. Har yili ko'plab odamlar etanol bilan zaxarlanishdan o'lishadi. Biroq kishi etanol bilan yengil zaxarlangan bo'lsa odam mast deb ataladi.

Spirtlarni foydali tomonlari bilan birga zararli tomonlari ham ko'p misol uchun spirtli ichimliklarni inson hayotida juda ham zararli spirtli ichimliklar ko'plab insonlarni umriga zomin bo'layapti hatto mahalliy aholi uchun bu oddiy holga aylanib qolmoqda hatto mahalliy aholi farzandlari yani o'sib kelayotgan yosh avlodga ham spirtli ichimliklarni ichishni tavsiya bermoqdalar bu esa yosh avlodni miyyasida bo'shliqni olib keladi bu narsani oldini olish uchun biz eng avvalo.

1) Spirtli ichimliklarni ommaviy magazinlarda sotuvga chiqarmaslik yani insonlar istemol qilishi uchun bermaslik kerak.

2) Yosh avlodni kasbga yo'naltirish biron bir ish bilan bant qilish. Yoshlar kasbga qiziqtirish kerak bunda kattalarni ta'siri katta bo'ladi chunki yoshlar kattalardan ko'rib o'z yo'lini tanlaydi.

3) Yoshlarni kitobga va o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish.

4) O'qituvchilarni dars o'tish metodlarini o'zgartirish kerak ba'zi o'qituvchilarni dars o'tish metodi shunchalik oddiyki o'quvchilarni darsga qiziqishi susaytirib yuboradi. Ba'zi o'qituvchilar dars o'tishda metodlardan foydalanmaydi va ba'zi mutaxasislarni o'z yo'nalishida bilimining yetarli bo'lmasligi ham bugungi kungi muammolarga kiradi. Bolani kitob o'qishga qiziqishida o'qituvchining o'rni juda katta ota-ona esa bunda yordamchi hisoblanadi.

Men o'ylaymanki agar biz yoshlarni kitob o'qishga, ilim olishga yoki hunar o'rganishga yo'naltirsak spirtli ichimliklar bilan bog'liq bunaqangi muammolar bo'lmaydi sababi bunaqa spirtli ichimliklar istemol qilish bekorchilikdan kelib chiqadi deb o'ylayman yer yuzida kuniga milionlab insonlar spirtli ichimliklarda nobud bo'lmoqda bu esa bekorchilikdan yoki qiladigan ishning yo'qligidan kelib chiqadi. Spirtni zararli deb qoralash ham noto'g'ri ularni foydali tomonlari ham bor o'zi deyarli hammasi foydali faqat meyordan oshib ketsa zararli inson

organizmi uchun spirtlarni belgilangan meyyori bor bu meyyordan oshib ketsa inson organizmiga zararli va turli kasalliklarga olib keladi va hattoki o'lim darajasigacha olib boradi. Alkogol iste'molidan dunyoda har yili uch milionga yaqin kishi vafot etadi. Bu OITS, zo'ravonlik va yo'l-transport hodisalari sababli yuzaga keladigan o'limlar sonidan ko'proqdir. Spirtli ichimliklar har 20 ta o'limning bittasiga sababchi bo'ladi, bunda alkogol mastlik holatida mashina boshqarish, mastlikka bog'liq bo'lgan zo'ravonlik hamda yurak-tomir tizimi faoliyatining buzilishi, jigar sirrozi va saratonning bir nechta turlari kabi ko'plab kasalliklar hisobiga olinadi. Bundan tashqari, alkogol tuberkulyoz (sil), OITS va pnevmoniya kabi infeksiyalar bilan kasallanish xavfini oshiradi. Alkogol bilan bog'liq barcha o'limlarning to'rtidan uch qismi erkaklar hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari 20-29 yoshdagi kishilar orasida o'limlarning katta ulush(13,5 %) ham spirtli ichimliklar suistemoliga to'g'ri keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 237 milion erkak va 46 milion ayol alkogolga tobelikdan azob chekadi. O'rtacha hisobda 2,3 miliard kishi kuniga 33 gramm toza spirt qabul qiladi. Bu taxminan ikki bokal vino yoki bir shisha (katta) pivoga teng. Xlor va spirt birikmalari inson tanasiga turli shakllarda ta'sir qiladi. Bugungi kunda antiseptik va dezinfeksiyalovchi vositalar respublikaga chet eldan import asosida kirib keladi. Ular spirt, xlor va uning birikmalaridan tashkil topgan. Antiseptiklar tarkibida spirt bo'lgani uchun qo'lni tez quritadi va yoriqchalar paydo bo'lishiga olib keladi. Spirtlarning yana bitta turi bor bu getro xalqali aromatik spirtlar bularga fenilkarbinol yoki benzil spirti (C₆H₅CH₂OH) aromatik spirtlar tarkibida benzol xalqasi bo'lgan spirtlar kiradi. Aromatik spirtlarning fenollardan dastlabki farqi shundan iboratki, ularda yaqqol ifodalanadigan kislotali xossalari deyarli yo'q. Ular kimyoviy xossalari jihatidan alifatik qator spirtlarga juda yaqin. Ishqoriy metallar tasirida alkogolyatlar hosil qiladi, oksidlanganda esa tuzilishiga ko'ra tegishli aldegid yoki ketonlarga aylandi. Osonlik bilan oddiy va murakkab efirlar hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1) Z.Sobirov, " Organik kimyo " TATU "aloqachi" nash Tosh shax Amir Temur ko'chasi 108-uy
- 2) O.S.Sadiqov, K.S.Sultanov, O.Y.Yo'ldoshev organik kimyo "o'qituvchi" nash Toshkent 30-uy
- 3) B.Raxmonov organik kimyo Toshkent shaxri
- 4) P.N.Mirzayev, M.P.Mirzayeva kimyo "Akademnash" Toshkent 2019-yil
- 5) S.Fazliyev, R.Hazratqulov, E.Maxmudov kimyo "Yangi kitob" nash Toshkent 2017-yil
- 6) B.Umarov "organik kimyo" Toshkent "Iqisod-Moliya" 2007-yil 174- bet
- 7) I.R.Asqarov, Y.T.Isayev, A.G.Mahsumov, Sh.M.Qirg'izov. "Organik kimyo" toshkent 2012-yil
- 8) A.Abdusamatov. "Organik kimyo" Toshkent 2005-yil